



BYUDJET TASHKILOTLARIDA O'TKAZILADIGAN DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATNING SAMARADORLIGI

Karayev Payzillaxon Yusufxonovich
Namangan muhandislik-qurilish instituti
ORCID: 0009-0003-1071-2925
payzillaxonqorayev@gmail.com

Annotatsiya. Ilmiy maqolada byudjet tashkilotlarida o'tkaziladigan davlat moliyaviy nazoratning samaradorligining nazariy asoslari yoritib berilgan. Budjetdan olinayotgan mablag'larni hududlar kesimida taqsimoti, budjet tekshiruvi, budjed nazarati va ekspertiza o'tkazish bo'yicha malumotlarga to'xtalib o'tilgan. Qolaversa bir necha moliyaviy nazoratlar amalga oshirilib tahlil qilinib chiqilgan.

Kalit so'zlar: byudjet tashkiloti, byudjet mablag'lari oluvchi, Keyingi nazorat byudjet xarajatlari, tekshiruv boshqaruv tamoyillari, aktivlar, moliyaviy nazorat.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ, ПРОВОДИМОГО В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Кареев Пайзиллахон Юсуфхонович
Наманганский инженерно-строительный институт

Аннотация. В научной статье освещены теоретические основы эффективности государственного финансового контроля, проводимого в бюджетных организациях. Были затронуты данные о распределении средств, поступающих из бюджета в разрезе регионов, бюджетной проверке, бюджетном контроле и экспертизе. Кроме того, проведен и проанализирован ряд финансовых проверок.

Ключевые слова: бюджетная организация, получатель бюджетных средств, последующий контроль бюджетных расходов, проверка принципов управления активами, финансовый контроль.

THE EFFECTIVENESS OF STATE FINANCIAL CONTROL CONDUCTED IN BUDGETARY ORGANIZATIONS

Karayev Payzillakhon Yusufkhonovich
Namangan Engineering-Construction Institute

Abstract. The scientific article highlights the theoretical foundations of the effectiveness of state financial control conducted in budgetary organizations. Data on the distribution of funds coming from the budget by region, budget audit, budget control and expertise were touched upon. In addition, a number of financial audits have been conducted and analyzed.

Keywords: budget organization, recipient of budget funds, subsequent control of budget expenditures, verification of asset management principles, financial control.

Kirish.

Byudjet tashkiloti - davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan tashkilotlar. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning byudjet hisobini yuritish tartibi byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Byudjet mablag'lari oluvchi - davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan mablag'lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxs byudjet mablag'lari oluvchidir. Byudjet mablag'lari oluvchi byudjet tashkiloti maqomiga ega bo'la olmaydi. Byudjet mablag'lari oluvchini davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish shartlari byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Budjet tizimi orqali jami ijtimoiy mahsulot davlat faoliyatining eng muhim sohalariga, jamiyat uchun muhim bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarishga va jamiyatning uyg'un rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga qayta taqsimlanadi (Kutyrev, 2017). Davlatning moliyaviy faoliyati davlat moliyaviy nazorati bilan uzviy bog'liq. Davlat nazorati funksiyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari budjet nazorati va auditi bo'lib, ular mablag'larni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bosqichlarini nazorat qilish imkonini beradi, shuningdek, budjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va bartaraf etishga yordam beradi (Kojushko, 2022). Ichki audit xizmati va davlat moliyaviy nazorati o'zaro bog'liq bo'lib, davlat organlarida moliyaviy shaffoflik va qonun ustuvorligini ta'minlash hamda davlat organlarida resurslarni samarali boshqarish, davlat oldida turgan maqsad va vazifalarini amalga oshirishga hissa qo'shish uchun hamkorlikda ish olib boradi va bir-birini to'ldiradi. Ular davlat sektorida nazorat va boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Byudjet tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan vazifa va funksiyalarni bajaradilar va davlat byudjetidan mazkur funktsiya va vazifalarni amalga oshirish va o'z faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida beg'araz tarzda moliyalashtilib boriladi. Byudjet tashkilotlari byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan moliyalashtirilgan mablag'lar hisobini va hisobotini har moliya yili davomida yuritadilar.

Samarali moliyaviy nazorat uchun, nazorat-hisob organlariga to'la nazorat vakolati zarur hisoblanadi. Davlatning barcha moliyaviy faoliyati, uning davlat byudjetida yoritilishidan qat'iy nazar nazorat-hisob organlari tomonidan nazorat qilinishi kerak. Byudjet doirasida kiritilgan har qanday mablag' nazoratdan tashqarida qolmasligi kerak. Bundan tashqari davlatning o'ziga qarashli bo'lgan korxonalar va muassasalar (doimo davlat dotatsiyasiga qaram) ham, garchand ular davlat mablag'laridan foydalanishlariga qaramasdan mablag'lardan foydalanish va soliqlar masalasida nazoratdan chetda qolmaydilar. Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar davlat byudjetining ijrosi bo'yicha topshiriladigan moliyaviy hisobot atributlariga qo'shib hisoblanishadi. Quyida biz byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar haqida fikr yuritamiz.

1-jadval ma'lumotlari bizga mamlakatimiz bo'ylab qaysi hududda byudjet tashkilotlarining soni ko'proq ekanligini ko'rsatib berayotgan bo'lsa, bundan aynan mana shu hududlarga byudjetdan moliyalashtirish va uning nazoratini ta'minlash chora-tadbirlari shunchalik ko'p qismni tashkil etishini anglatib turadi. Byudjet intizomiga rioya qilinishi, byudjet mablag'larining belgilangan maqsadda sarflanishi ustidan qattiq nazoratni ta'minlashga doir ishlarni samarali tashkil etish maqsadida, 1999-yil 11-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Byudjet intizomiga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish to'g'risida" Qarori qabul qilindi.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi hududlar kesimida byudjet tashkilotlari va
byudjetdan mablag' oluvchilar soni (2021-yil holatiga)**

№	Hududlar	Byudjet tashkilotlari soni	Byudjetdan mablag' oluvchilar soni
1.	Andijon viloyati	1900	71
2.	Buxoro viloyati	1481	42
3.	Jizzax viloyati	1255	65
4.	Qashqadaryo viloyati	2119	88
5.	Navoiy viloyati	857	74
6.	Namangan viloyati	1763	66
7.	Samarqand viloyati	2594	58
8.	Surxondaryo viloyati	1794	51
9.	Sirdaryo viloyati	877	42
10.	Toshkent shahri	1833	308
11.	Farg'ona viloyati	2530	50
12.	Xorazm viloyati	1327	57
13.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1693	102
14.	Toshkent viloyati	2068	96
Jami		24091	1170

Hozirgi sharoitda byudjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish ham byudjetdan ajratiladigan xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash jarayonida, ham byudjet tashkiloti tegishli xarajatlarni qilgandan keyin amalga oshiriladi.

Byudjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning belgilangan normativlari va limitlari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tavsifnomasi, tegishli byudjetlarning tasdiqlangan parametrlari, tasdiqlangan shtat jadvallari va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan byudjet tashkilotlari xarajatlari asosida amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat o'tkazish metodlari bizga ular o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib beradi va bir-biridan ajratib turuvchi ta'rifi ega.

Tekshiruv - hisobot hujjatlari va hisob-kitob hujjatlari asosida moliyaviy faoliyatning ayrim masalalari ko'rib chiqiladi va aniqlangan qoidabuzarliklar bartaraf etish uchun choralar belgilanadi.

Ko'rikdan o'tkazish - moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarning (tekshiruvga qaraganda) keng doirasini qamrab oladi.

Nazorat - nazorat qiluvchi organlar tomonidan qandaydir moliyaviy mazorat turiga litsenziya olgan iqtisodiy obyektlarda amalga oshiriladi va ular tomonidan o'rnatilgan qoida va me'yorlarga amal qilish tekshiruvidan iborat. Moliyaviy nazorat tahlili - davriy yoki yillik moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobot natijalarini umumiy baholash, moliyaviy holatni baholash va ichki xo'jalik zaxiralarini izlab topish maqsadida batafsil o'rganishdan iborat.

Ekspertiza - muassasaning muammolarini kasbiy fikrlarini shakllantirgan holda masofaviy tadqiq etish.

Taftish - bu byudjet tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining o'zaro bog'liq bo'lgan tekshiruvlar majmuidir. Moliya organlarining faoliyati ham taftish tekshiruv bilan qamrab olinishi mumkin.

Taftish byudjetdan moliyalashtirilgan davlat, hukumat organlari va uning alohida bo'linmalarida, byudjet fondlarida, davlat ishtirok etgan korxonalar va tashkilotlarda, barcha mulkiy shakldagi tashkilotlarda o'tkazilishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan taftish va tekshiruvlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilangan moliyaviy nazoratning

tavsiya qilingan: ro'yxatga olish, nazorat o'lchovi, laboratoriya tahlili, arifmetik tekshirish, muqobil tekshirish kabi usullari yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Ilmiy adabiyot va ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari tahlili asosida, tadqiqot ishida xalqaro hisoblash usulini qo'llash sharoitida foydalanilishi lozim bo'lgan moliyaviy nazorat usullarining tasnifi tavsiya etilgan.

2-jadval

Moliyaviy nazoratning davriyligi bo'yicha qo'llaniladigan usullarni turkumlash

Moliyaviy nazoratning qamroviga ko'ra	Moliyaviy nazoratni o'tkazish ketma-ketligiga ko'ra	Moliyaviy nazoratni o'tkazish davriyligiga ko'ra	Moliyaviy nazoratni o'tkazishning huquqiy asoslariga ko'ra
Kompleks	Dastlabki	Yillik	Amaldagi qonunchilik asosida rejaga binoan
Tematik	Joriy	Davriy	Ichki me'yoriy hujjatlar asosida
Tanlanma	Yakuniy	Choraklik	Amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida

Taftish natijalari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladi, byudjet sohasidagi qoidabuzarliklar yuzasidan profilaktika ishlari olib borishga ko'maklashadi. Tekshirilayotgan obyekt faoliyatini qamrab olish darajasiga ko'ra taftishni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Kompleks (to'liq) taftish - bu taftish tekshiruvlarning eng ko'p qo'llaniladigan turi bo'lib u taftish o'tkazilayotgan byudjet tashkiloti faoliyatining barcha jihatlarini: moliyaviy-xo'jalik muomalalari, ishlab chiqarishni tashkil etish, resurslardan foydalanish samaradorligi, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar, byudjet hisobining holati va boshqalarni qamrab oladi. Faoliyatning ayrim jihatlarini (tomonlari, vaziyatlari)ni tekshirish uchun soha mutaxassislari taklif etilishi ham mumkin.

Tematik taftish - bunda byudjet tashkilotlari faoliyatining ma'lum uchastkasi (bo'limi) tekshiriladi xolos. Bunday taftish obyektning ishi haqida to'liq tushuncha bera olmaydi, ammo qaysidir muammo bo'yicha chuqur tahlil o'tkazishga imkon yaratadi. Agar tematik taftish bir nechta byudjet tashkilotining bir turli uchastkalarida o'tkazilsa, aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni taqqoslash orqali sohadagi turdosh (bir xil) kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish uchun yo'riqnomalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Tekshiruv jarayonida aniqlangan barcha qoidabuzarliklar taftish dalolatnomalarida aks ettiriladi.

Taftish dalolatnomasi rasmiy hujjat hisoblanadi va unga asoslangan holda byudjet tashkilotining faoliyati haqida xulosalar qilinadi. Taftish dalolatnomasini tuzish mas'uliyatini taftishchi xodimga yuklatiladi. Dalolatnomada qoidabuzarlik faktlari tasvirlanishi, ular amalga oshirilgan vaqt ko'rsatilishi, ularning qiymati aniqlanishi tartibi va natijasi ko'rsatilishi, shuningdek, aybdor shaxslar ko'rsatilishi lozim. Dalolatnomada taftishchi xodimning shaxsiy xulosa va taxminlari aks ettirilishi mumkin emas. Byudjet tashkilotlarining asossiz sarflari, kamomadlar va ular ustidan nazorat haqida gaplarsak, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan joriy yilning I yarim yilligida olib borilgan nazorat tadbirlari natijasida ayrim byudjet muassasalari tomonidan byudjet mablag'larini sarflanishida tizimli ravishda byudjet qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yilayotganligi aniqlandi. Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim maktablarida haqiqatda ishga kelmagan va xizmat vazifasini bajarmagan xodimlarga yoki umuman ishlamaydigan fuqarolar nomiga ish haqi hisoblanishi homiladorlik va tug'ish nafaqalarini, shuningdek mehnat ta'tili, mukofot va moddiy yordam

mablag'larining asossiz hisoblanishi va to'lanishi natijasida byudjet mablag'larini noqonuniy sarflanishiga yo'l qo'yilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jumladan, Jizzax shahar 22-sonli umumta'lim maktabida haqiqatda ishlamaydigan 11 nafar fuqarolar nomiga homiladorlik va tug'ish nafaqalarini, shuningdek mehnat ta'tili, mukofot va moddiy yordam mablag'larining asossiz hisoblanishi va to'lanishi natijasida 448,2 mln. so'm byudjet mablag'lari asossiz sarflab yuborilgan. Haqiqatda ishlamagan fuqarolarga ish haqi hisoblash yo'li bilan Bo'z tumanidagi 5-sonli umumta'lim maktabida 99,3 mln.so'm, Jarqo'rg'on tumanidagi 4-sonli umumta'lim maktabida 65,3 mln.so'm byudjet mablag'lari o'zlashtirilgan.

Buxoro shahridagi 1-son umumta'lim maktabida 31,2 mln.so'm miqdoridagi byudjet mablag'lari haqiqatda ishga kelmagan va xizmat vazifasini bajarmagan xodimlarga ish haqi hisoblanishi natijasida asossiz sarflab yuborilgan. Sho'rchi tumanidagi 10-son umumta'lim maktabida xodimlarining plastik kartochkalarga asossiz mablag' o'tkazish yo'li bilan 36,1 mln.so'mlik byudjet mablag'lari noqonuniy o'zlashtirilgan. Yashnobod tumanidagi Ko'zi ojizlar maxsus maktab internatida bosh hisobchi tasdiqlangan shtatlar jadvalidagi o'zining oylik lavozim maoshiga ortiqcha ish haqi qo'shib yozishi natijasida byudjetdan 77,6 mln.so'm asossiz ortiqcha to'lab yuborilgan.

Bulardan tashqari, Bog'dod tumanidagi 50-sonli umumta'lim maktabida pudratchi "Farg'ona sayqal servis" xususiy korxonasi tomonidan "Obod qishloq" dasturi doirasida bajarilgan ta'mirlash ishlari joyida nazorat o'lchovidan o'tkazilib, moliyalashtirish uchun taqdim etilgan hisob-faktura ma'lumotlari bilan haqiqatda bajarilgan ishlar solishtirilganda 129,9 mln.so'mlik bajarilmagan ish hajmlari qo'shib yozilganligi ma'lum bo'ldi. Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimidagi Sh.Rashidov tumanidagi 9-son maktabgacha ta'lim muassasasida haqiqatda ishlamagan 31 nafar fuqarolarga ish haqi hisoblash yo'li bilan 955,5 mln.so'm miqdoridagi byudjet mablag'lari o'zlashtirilishiga yo'l qo'yilgan. Shuningdek, Buxoro shahar 46-son maktabgacha ta'lim muassasasida haqiqatda ishga kelmagan va xizmat vazifasini bajarmagan 8 nafar xodimlarga 88,4 mln.so'mlik ish haqi to'lovlari ortiqcha hisoblanib, asossiz to'lab yuborilgan.

Uychi tumanidagi 11-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan 23 nafar xodimga 21,5 mln.so'm avans pullari yozilib, ushbu mablag' xodimlarga tarqatilmadan o'zlashtirilgan. Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Sirdaryo viloyat Ko'p tarmoqli tibbiyot markazida bosh hisobchi va g'aznachi tomonidan pullik xizmat hisobidan kirim qilingan 231,5 mln.so'm naqd pul mablag'larini to'lov qaydnomalarni qalbakilashtirilgan yo'li bilan o'zlashtirib yuborilgan. Toshkent tuman tibbiyot birlashmasida avans to'lovlarini ish haqidan ushlamaslik, ortiqcha mukofot pullarining hisoblanishi va shifokorlar tomonidan bajarilmagan ish uchun ish haqi hisoblanishi natijasida 148,2 mln.so'm byudjet mablag'i asossiz sarflangan. Qo'qon shahar Tibbiyot birlashmasida xodimlarga ish haqi, mehnat ta'tili va boshqa turdagi ish haqiga tenglashtirilgan to'lovlarini shtatlar jadvali va tarifatsiya ro'yxatida ko'rsatilgan miqdorlarga nisbatan ortiqcha va amalda ishlamagan kunlari uchun hisob-kitoblarni noto'g'ri amalga oshirilishi natijasida 119,8 mln.so'm ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'yilgan.

Mirobod tuman tibbiyot birlashmasida bosh hisobchi tomonidan birlashmada ishlamagan yoki o'tgan yillarda ishdan bo'shab ketgan 4 nafar xodimlarga ish haqi hisoblanib, ularning nomiga ochilgan bank plastik kartochkalariga o'tkazish yo'li bilan jami 87,1 mln.so'm to'lab yuborilgan. Uchqo'rg'on tuman Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazi tomonidan byudjet muassasalarida ishlovchi xodimlarga ko'rsatilgan 75,6 mln.so'm miqdoridagi pullik xizmat haqlari muassasa hisob-raqamiga kirim qilinmagan. Farg'ona shahar Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazida birlamchi hujjatlarni o'zgartirish yo'li bilan 29 mln.so'm naqd pul mablag'lari kirim qilmasdan boshqa maqsadlarga sarflab yuborilgan. Tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmalarida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida byudjet mablag'larini asossiz o'zlashtirish, noqonuniy sarflash, tovar moddiy qiymatliklar kamomadiga yo'l qo'yish,

bajarilmagan ishlarni qo'shib yozish holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqlandi, jumladan: Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bosh hisobchisi tomonidan 373,5 mln.so'm byudjet mablag'ini o'zining va 2 nafar qabriston nazoratchilarining plastik kartochkasiga asossiz o'tkazib yuborilgan.

Nurafshon shahar Obodonlashtirish boshqarmasida 297,3 mln.so'mlik asosiy vositalar va tovar moddiy boyliklar kamomadiga yo'l qo'yilgan. Nishon tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli "Yuksalish MFY" hududidagi chiqindi joylashtirish poligoni atrofini o'rash ishlari loyiha smeta hujjatlari asosida amalga oshirilmaganligi va yakuniga yetkazilmaganligi natijasida 88,4 mln.so'mlik bajarilmagan ishlar qo'shib yozilgan.

Urganch tuman obodonlashtirish boshqarmasida shtat birliklari razryadlari yuqori belgilanishi, ishchi xodimlarga ish haqlari asossiz ortiqcha hisoblanishi, moddiy yordam pullarining ortiqcha tayinlanishi natijasida jami 51,1 mln.so'mlik byudjet mablag'lari ortiqcha sarflangan bo'lsa, "Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risida nizom" talablariga rioya qilinmasdan 2018-yilda xarid qilingan 37,4 mln.so'mlik asosiy vositalar hisobdan chiqarib yuborilgan. Yangiyer shahar obodonlashtirish boshqarmasida amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinmasdan ishchi xodimlarga ustama tayinlanishi natijasida 37,3 mln.so'm ustama pullari ortiqcha to'langan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktyabrdagi 799-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida nizom" talablari asosida haq to'lanadigan jamoat ishlari uchun ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat ishlari olib borilmoqda. Joylarda jamoat ishlarini tashkil etishda ayrim Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasidan ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflanishida qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yilayotganligi aniqlandi. Misol uchun, Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan jamg'armadan jamoat ishlari uchun ajratilgan 73 mln.so'm miqdoridagi mablag'lar asossiz sarflab yuborilgan, jumladan: "Sho'rchi uy-joy mulkdorlari" shirkati raisi Nizom talablariga zid ravishda 30 nafar fuqarolarning passport nusxalarini olib, ular bilan mehnat shartnomasi tuzmasdan jamoat ishlariga jalb qilinganligi va 2018-yilning aprel-iyun oylarida jamoat ishlarida ishlaganliklari to'g'risida soxta hujjatlarni rasmiylashtirgan.

Moliyaviy nazorat bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida ilmiy asoslangan guruhlashtirish tartibi ishlab chiqildi. Bunda moliyaviy nazorat majburiy va o'z tashabbusiga ko'ra, majburiy moliyaviy nazorat esa o'z navbatida, dastlabki nazorat, kundalik nazorat, yakuniy nazorat kabi guruhlarga ajratiladi. Shu bilan birga bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy nazoratning asosiy usuli taftishni tashkil etishning o'ziga xos tomonlariga tasnif beriladi.

Hududiy moliya bo'limlari mavqei va byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishda muassasalar rahbar va buxgalteriya hisobi xodimlarining ma'suliyati oshadi. Byudjet mablag'larini markazlashtirish faqat Moliya vazirligi ruxsati bilan amalga oshirilishi, tejalgan mablag'ni markazlashtirib, mablag' to'plash va uni maqsadli yo'naltirish imkoniyati tug'iladi.

Byudjet mablag'larini tashkilotni dabdabali jihozlash, turli xususiy korxonalariga maqsadsiz o'tkazish kabi bir qator holatlarga chek qo'yiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining xarajatlar qismida ham ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish, byudjet xarajatlarini me'yoriy usullarga o'tkazish, byudjet tashkilotlariga erkinlik beradigan, ularning moddiy manfaatdorligini oshiradigan tizim yaratish va mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi rolini, mavqeini oshirish zarur.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida bir qator moliyaviy nazorat natijalariga oid ma'lumotlar byudjet tashkilotlarining mablag'lardan oqilona foydalanish ularni bemaqsad sarflash kabi holatlar juda ko'p uchragan, eng asosiylari xalq ta'limi, sog'liqni-saqlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida byudjet mablag'larini talon-taroj qilish holatlari eng ko'p uchragani ma'lum bo'lmoqda.

Bunday holatlarni birdaniga yo'q qilishning iloji yo'q albatta, lekin ichki nazorat tadbirlari orqali ya'ni ichki audit xizmatini tashkil qilish byudjet tashkilotlarining sarf xarajatlari hisobini qonun hujjatlari talablariga muvofiq va belgilangan me'yorlar asosida buxgalteriya hisobini yuritish, bu orqali byudjet ijrosi va g'aznachilik tizimining shaffofligini ta'minlashimiz mumkin.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Oybek, A., & Lazizbek, A. (2021). *Ensuring Economic Security Is Sustainable Is An Important Factor In Development*. *Academicia Globe*, 2(07), 115-120.

Oybek, A., & Lazizbek, A. (2021). *The Main Features of Light Industry in the Economy of Uzbekistan*. *Academicia Globe*, 2(07), 127-132.

Turgunpulatovich, A. O. (2022). *Formation of financing technology and communication relations in increasing the competitiveness of small business entities*. *International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11, 49-58.

Turgunpulatovich, A. O. (2022). *Modern trends in the formation of international competitiveness of the national economy*. *International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11, 69-79.

Turgunpulatovich, A. O. (2022). *The concept of forming the competitiveness of small business entities and its essence*. *Asia pacific journal of marketing & management review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(07), 46-55.

Turgunpulatovich, A. O. (2022). *The concept of shaping the competitiveness of small businesses and its essence*. *International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11, 171-178.

Turgunpulatovich, A. O., & Sirojiddin o'g'li, N. N. (2022). *DEFINITION OF INVESTMENT STRATEGY FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONAL ECONOMIES*. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(09), 19-29.

Бурцев В.В. (2017), "Методология и организация внутреннего аудита", *Бухгалтер и Закон*, № 9(93).

Глушенко А.В., Егорова Е.М. (2014) «Методология управленческого учета затрат в вузах в контексте системы менеджмента качества», «Международный бухгалтерский учет». № 47 (293).